Sistematik analiz va maydalab bajariladigan analiz. Sistematik tarzda olib boriladigan analizning mohiyati, uning ijobiy tomonlari va kamchiliklari. Umum analitik guruhlar uchun xos, maxsus reaksiyalar va reagentlar. Maydalab olib boriladigan analiz, uning mohiyati va rivojlanish bosqichlari.

Gomogen sistemadagi muvozanat. Massalar ta`siri qonunining kuchsiz elektrolitlarning ionlanish jarayoniga qo`l lanilishi. Ostval`dning suyultirish qonuni tenglamasi. Kuchli elektrolitlar nazariyasining asosiy qoidalari. Kuchli elektrolitlarning kuchsiz elektrolitlardan farq qiladigan tomonlari. Aktivlik, aktivlik koeffisienti.

Suvning elektrolitik dissosilanishi. Suvning ionlanish jarayoniga massalar ta`siri qonunini tadbiiq qilib suvning ion ko`paytmasini keltirib chiqarish. Vodorod va gidroksid ko`rsatkichlar va ular qiymatlarini xisoblash. Bir ismli ionlar tasiri. Bufer eritmalar, va ularning pH qiymatini hisoblash.

Geterogen sistemadagi muvozanat. Eruvchanlik ko`paytmasi. Moddaning eruvchanligi asosida eruvchanlik ko`pytmasini hisoblash. Eruvchanlik ko`paytmasi qiymatlariga ko`ra moddalarning eruvchanligini topish. Elektrolitlarning eruvchanligiga bir ismli ionlar tasiri. Tuz effekti. Cho`kmalarning hosil bo`lishi va erishi. Bir xil kam eruvchan moddalarni boshqa xil kam eruvchan birikmaga aylantirish.

Tuzlar gidrolizi. Tuzlarning pH va pOH qiymatlari. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan, kuchsiz asos va kuchli kislotadan hamda kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo`lgan tuzlarning gidroliz konstantasi va gidroliz darajasi.

Gidrolizlanuvchi tuzlar eritmalarining pH va pOH qiymatlarini hisoblash. Sifat analizida gidrolizning ahamiyati. Gidroksidlarning amfoterliigi. Amfoterlik nazariyasi. Sifat analizda amfoterlikning ahamiyati.

Kompleks birikmalar, ularning tarkib va tuzulishi. Kompleks ionlarning dissosilanishi. Beqarorlik konstantasi. Kompleks birikmalarning parchalanish va dissosilanish mahsulotlarining konsentrasiyalarini hisoblash. Sifat analizida kationlarni ochish va bir biridan ajratish uchun komplekslarning qo`llanilishi.

Bosqichli kompleks hosil bo`lishi. Kompleks birikmalarning miqdoriy ko`rsatkichlari. Komplekslarning hosil bo`lishiga ta`sir qiluvchi omillar. Organik reagentlarning anorganik ionlar bilan ta`sir qilishining nazariy asoalari. Funktsional analitik gruppalar. Helatlar, ichki kompleks birikmalar.

Miqdoriy analiz va uning metodlari. Miqdoriy analiz predmeti. Kimyoviy muamolarni hal qilishda va amaliy masalalarni yechishda miqdoriy analiz roli va ahamiyati. Miqdoriy analizning asosiy mavzulari. Gravimetrik (tortma) va titrimetrik (hajmiy) va gaz analizlari. Miqdoriy analizning fizika-kimyoviy metodlari, ularning tavsifi. Analiz hatoliklari: absolyut, nisbiy, tasodifiy va sistematik hatolar.

Gravimetrik (tortma) analiz. Mohiyati va metodlari. Gravimetrik analiz va uning mohiyati. Asosiy metod va operatsiyalari. Eritmadagi komponentning hamma miqdorini cho'kma holida ajratib olish. Cho'kmaning cho'ktiriladigan va tortiladigan ko'rinishlari. Kristallik va amorf cho'kmalar. Cho'tirish shartlari. Cho'ktirishning to'liq va to'liqmasligi. Cho'kmani tobiga yetkazish. Cho'kmaning tozaligi. Adsorbsiya va okklyuzim – cho'kmalarning ifloslanish sababidir. Cho'kmalarni yuvish, qurutish va cho'g'lantirish. Cho'kmani torozida tortish. Gravimetrik analizning aniqlik darajasi. Gravimetrik analizda bajarilishi kerak bo'lgan hisoblashlar.

Titrimetrik (hajmiy) analiz. Uning mohiyati va metodlari. Titrimetrik analizni amalga oshirish uchun zaruriy shartlar. Titrimetrik analizda eritmalar konsentratsiyalarini ifodalash usullari: titr va normallik bo'yicha ifodalash. Standart eritmalar va standartlashtirilgan ish eritmalar. Ish uchun kerakli titrlangan (dastlabki) eritmalar tayyorlash. O'lchov idishlar va ularni tekshirish. Titrimetrik analizda bajariladigan hisoblashlar. Titrimetrik analiz metodlari.

Kislota va asoslarni titrlash metodining mohiyati va qo'llanish sohasi. Indikatorlar nazariyasi. Asidimetriya va alkalimetriya. Muhitning kislotaliligi va ishqoriyligi; vodorod ko'rsatkich. Netrallanish nuqtasi va titrlashning so'nggi nuqtasi. Kislota va asoslarni titrlash metodida qo'llaniladigan indikatorlar.

Eng muhim indikatorlarning o'zgarish intervali. Titrlash turli hollari. Kuchli kislotani kuchli ishqor bilan, kuchsiz kislotani kuchli ishqor bilan, kuchsiz ishqorni kuchli kislota bilan titrlash. Titrlash egri chiziqlari. Titrlashning turli hollarida ekvivalentlik nuqtani topish. Konkret hollarda titrlash uchun zaruriy indikatorlar tanlash.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan titrlash, mohiyati va metodlari. Oksidlanish-qaytarilish metodlarining mohiyati va sinflarga bo'linishi. Redoks potentsiallar va redoks reaksiyalarining yo'nalishi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarning muvozanat konstantalari. Redoks metodlardagi titrlash egri chiziqlari. Oksidlanish-qaytarilish metodlarida qo'llaniladigan indikatorlar.

Permanganometriya. Metodning mohiyati va uning qo'llanilish sohasi. Iodometriya. Oksidlovchi va qaytaruvchi moddalar miqdorini redoksimetriya metodlari asosida aniqlash. Ish uchun kerakli eritmalar. Tiosulfat eritmasi va tiosulfat bilan yod orasidagi reaksiya.

Cho'ktirishga asoslangan titrlash metodi. Cho'ktirish metodlarining mohiyati, ularning nazariy asoslari. Cho'ktirish metodlari bilan gravimetrik metod orasidagi o'xshashlik va farqlar. Cho'ktirish metodlarining sinflanishi.

Argentometriya metodining usullari. Argentometriya metodining mohiyati, turlari. Gey-Lyussak, Mor, Fayans usullari. Rodanometriya yoki Fol'gard usuli. Merkurimetriya va merkurometriya metodlarining mohiyati. Cho'ktirish

metodlaridan qo'llaniladigan indikatorlar. Cho'ktirish metodlarining qo'llanish sohalari.

Kompleksonometrik titrlash metodlari. Kompleksonlar va ularning miqdoriy analizda qo'llanilishi. Komplekso-nometriyaning indikatorlari. Kompleksonometrik titrlash usullari. Trilon B yordamida kompleksometrik titrlashning mohiyati.

Elektrokimyoviy analiz metodi. Elektrogravimetrik analiz metodi, uning mohiyati va qo'llanilishi. Potensiomertik, kulonometrik va konduktometrik analiz metodlari. Polyarografik analiz metodi. Bu metodning nazariy asoslari. Polyarograf.

Optik analiz metodlari. Spektroskopik, optik spektroskopiya metodlari. Kolorimetriya. Bu metodning mohiyati. Yorug'likning eritmalarga yutilishi. Lambert va Ber qonuni. Fotoelektrokolorimetriya. Bu metodning mohiyati va qo'llanilish sohasi. Polyarimetriya va pefraktometriya. Bu metodlarning mohiyati va qo'llanilish sohalari. Analizning boshqa fizikaviy metodlari.

Fizik-kolloid kimyo fani bo'yicha

Umumiy kimyo fanining predmeti, rivojlanish tarixi. Fizik kimyo predmeti va usullari, tarixi va uning O'zbekistonda rivojlanishi. Bu fanning rivojlanishiga o'zbek olimlarining qo'shgan hissasi. Fizik kolloid kimyo fanining umumiy xarakteristikasi va uning XIX asr oxiri va XX asr boshlarida aloxida fan sifatida shakllanishi. O'zbekistonda fizik-kolloid kimyo sohasida ilmiy ishlari bilan mashhur bo'lgan olimlar – X.R. Rustamov, X.U. Usmonov, A.M. Murtazaev, K.S. Axmedov, A.S. Sultonov va boshqalarining xizmatlari. Termodinamika asoslari Gaz xolati tenglamalari. Ideal gaz tushunchasi va uning axamiyati. Ideal gazning xolat tenglamasi (Mendeleev - Klapeyron). Boyle-Mariot va Sharl'-Gey-Lyusak qonunlari. Real gazlar va ularning xolat tenglamasi. Kimyoviy termodinamikaning birinchi qonuni Termodinamik sistema va uning ta'rifi. Sistemaning ichki energiyasi va issiqlik saqlami – entalpiya. Termodinamik jarayonlar va ularga termodinamika birinchi qonuni tadbig'i. Termokimyo va Gess qonuni. Gess qonuni va reaksiyalarning standart issiqlik effektlari. Moddalarning hosil bo'lish, yonish va erish issiqliklari. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Termodinamika ikkinchi qonunining mazmuni va mohiyati. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Karno sikli. Entropiya. Entropiyaning xolat funksiyasi ekanligi. Termodinamikaning uchinchi qonuni. Qaytar va qaytmas jarayonlar uchun entropiya qiymatining o'zgarishi. Erkin va bog'langan energiya. Bol'sman formulasi. Xarakteristik funksiyalar. Gibss va Gel'mgol's energiyalari. Entropiya, ichki energiya ental'piya, Gibss energiyasi va Gel'mol's energiyalarini hisoblash. Muvozanat va kimyoviy potentsiallar. Termodinamik va kimyoviy muvozanat. Massalar ta'siri qonuni va muvozanat konstantalari. Kimyoviy potentsial tushunchasi va uning xossalari.

Fazalar qoidasi va fizik- kimyoviy analiz. Faza, komponent va erkinlik darajasi tushunchalarining ta'rifi. Fazalar qoidasi. Bir komponentli sistemalar. Suvning xolat diagrammasi. Ikki komponentli sistemalarni fazalar qoidasi asosida tahlil qilish. Qattiq eritma, evtetik nuqta va kimyoviy birikmalar hosil qiluvchi sistemalarda kongurent va nokongurent nuqtalari. Termik analiz. Eritmalar

Eritmalarning umumiy xarakteristikasi. Gidratlar nazariyasi. Gazlarning, suyuqliklarning va qattiq moddalarning suyuqliklarda erishi. Raul' qonuni va tadbig'i. Ideal va noideal eritmalar. Raul' qonunidan chetlanishlar. Eritmaning to'yingan bug' bosimi bilan uning tarkibi orasidagi bog'lanish. D.P. Konovalov qonunlari. Suyuq aralashmalarning haydalishi. Suyultirilgan eritmalarning muzlash va qaynash temperaturalari. Krioskopiya va ebulioskopiya. Eritmalarda bo'ladigan diffuziya va osmos hodisalari. Osmotik bosim hodisalari. Osmotik bosimning termodinamikasi. Erigan moddaning molekulyar massasini osmotik bosim orqali hisoblash. Elektrolitlarning eritmaları Elektrolit eritmalar xossalarining Raul' va Vant-Goff qonunlaridan chetlanishi. Elektrolitik dissosilanish darajasi bilan izotonik koeffisient orasidagi bog'lanish. Kuchli elektrolitlar nazariyasi Kislota va asoslarning protolitik nazariyasi. Ion kuchi. Elektrolit eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi. Solishtirma va ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik. Tashish soni. Ionlarning harakatchanligi. Suyultirish qonuni. Konduktometriya. Elektrod jarayonlar va EYUK Elektrokimyoviy jarayonlarning umumiy tavsifi. Elektrod potentsiallarning hosil bo'lishi. Elektr yurituvchi kuch va muvozanat konstantasi. Gal'vanik element. Elektr yurituvchi kuchning ayrim elektrod potentsiallar ayirmasidan iborat ekanligi. Nernst tenglamasi. Veston elementi. Elektr yurituvchi kuchni o'lchash usullari. Gal'vanik zanjirlarning turlari. Konsentration zanjir. Diffuzion potentsial, oksidlanish-qaytarilish potentsiali. Taqqoslash elektrodleri. Kalomel' va kumush xloridli elektrodler. Vodorod, xingidron va shisha elektrodler. Elektrokimyoviy usulda pH-ni o'lchash. Potensiometrik titrlash. Elektroliz va unda ketadigan kimyoviy jarayonlar. Elektroliz qonunlari. Elektrolizda modda ajralib chiqishining tokka nisbatan unumi. Sanoat uchun eng muxim bo'lgan ayrim moddalarning elektroliz usulida olinishi. Kimyoviy va konsentrosion qutblanishlar. Qutbsizlantirish (depolyarizasiya). Metallarning elektrokimyoviy korroziyasi va undan saqlanish usullari.

Sirt hodisalari va adsorbsiya. Sirt tarangligi. Asosiy tushunchalar. Adsorbsiya Adsorbsiya va uning mohiyati. Adsorbsion muvozanat. Qattik jism sirtidagi adsorbsiya. Adsorbsiya izotermasi. Freyndlix va Lengmyur formulalari. Suyuqlik sirtida bo'ladigan adsorsiya. Suyuqlik sirtidagi adsorbsiya bilan sirt tarangligi orasidagi miqdoriy bog'lanish. Gibbs tenglamasi va uning mohiyati.

Kimyoviy kinetika va kataliz Kimyoviy kinetikaning asosiy tushunchalari. Kimyoviy reaksiya tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Kimyoviy reaksiyaning molekulyarligi va tartibi. Tezlik konstantasi va reaksiya tartibini aniqlash. Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'siri. Faollanish energiyasi. Arrenius tenglamasi va uning asosida faollanish energiyasining qiymatini aniqlash. Zanjir reaksiyalar va ularning nazariyasi. Aktiv markazning hosil bo'lishi, zanjirning o'sishi va uzilish jarayonlari. Zanjirning uzunligi. Tarmoqlangan zanjir reaksiyalar va ularning borish mexanizmi. Kataliz. Asosiy tushunchalarning ta'riflari. Gomogen kataliz. Gaz muhitida, eritmalarda sodir bo'ladigan kataliz. Kislota-asos kataliz. Geterogen kataliz. Katalizatorning aktivligi va selektivligi. Geterogen katalizning multiplotlar va elektron nazariyasi.

Kolloid sistemalar va ularning klassifikatsiyasi. Kolloid sistemalar haqida tushuncha. Geterogenlilik va disperslik o'lchami. Kolloid sistemalarning

klassifikatsiyasi. Ularning tabiat va sanoatdagi ahamiyati. Kolloid kimyo va uning rivojlanishiga o'zbek olimlarining qo'shgan hissalar. Kolloid sistemalarni olish va tozalash Kolloid sistemalarni olish usullari. Maydalash va kondensatslash. Peptizasiya. Misella va uning tuzilishi. Kolloid sistemalarni tozalash. Kolloid sistemalarning optik va molekulyar kinetik xususiyatlari Kolloid sistemalar tomonidan nurning yutilishi va sochilishi. Kolloid sistemalarning turli rangga ega bo'lish sabablari. Kolloid sistemalarda Brown harakati, diffuziya va uning tezligi. Osmotik bosim va uning qiymati. Sedimentasion analiz. Figurovskiy tarozisi va uning qo'llanishi. Kolloid sistemalarning elektrik xossalari, barqarorligi va koagulyasiyasi. Ikkilamchi elektr qavatning paydo bo'lishi va tuzilishi. Elektrokinetik potensial. Elektroforez va elektroosmos, ular asosida elektrokinetik potensialni aniqlash yo'llari. Koagulyasiya va uning kinetikasi. Koagulyasiya ro'y berishiga olib keluvchi vositalar. Schul's-Gardi qoidasi. Kolloid sistemalarning o'zaro koagulyasiyasi. Agregativ va sedimentasion barqarorlikning yo'qolishi. Zolning gel'ga aylanishi. Gellarning xillari va «eskirishi». Dispers sistemalarning strukturaviy mexanik xossalari Kolloid sistemalarda strukturalarning paydo bo'lishi va ularning o'ziga xos tomonlari. Strukturaviy qovushqoqlik. Eynshteyn formulasi. Dispers sistemalarning strukturaviy-mexanik xossalari. Siljitish kuchlanishi. Oquvchanlikning xillari. Reologiyani kolloid sistemalarni o'rganishda qo'llanilishi Gaz holda dispers muhitli tizimlar Aerezollar, ularning olinishi va yo'qolish usullari. Aerezollarining ahamiyati. Suyuq va qattiq holatdagi dispers fazali sistemalar Suspenziyalar. Emul'siyalar va ularning klassifikatsiyasi. Emul'gatorlar. Sirt aktiv moddalar va ularning qo'llanilishi. Latekslar. Ko'piklar, ularni hosil qilish va buzish usullari.

Ishlab chiqarish jarayonida va tabiatni muhofaza qilishda dispers sistemalarning roli Havoni gaz holdagi qattiq chang chiqindilaridan tozalash. Suvning ifloslanishi va uni muhofaza qilish. Suvni tozalash usullari. Ishlab chiqarish jarayonida uchraydigan dispers sistemalar va ulardan foydalanish.

Biologik kimyo fani bo'yicha

“Biologik kimyo” fanining predmeti, o'rganish obektlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, bo'limlari hamda vazifalariga tavsif. Boshqa biologik fanlar orasida tutgan o'rni va uning eng muhim vazifalariga ta'rif berish.

Oqsillarning elementar tarkibi, funksiyasi. Aminokislotalarning tuzilishi va tarkibida qo'shimcha funksional guruhlar tutishiga qarab klassifikatsiyalanishi haqida tushuncha. Aminokislotalarning fiz-kimyoviy xossalari. Oqsillarning fiz-kimyoviy xossalari.

Oqsillar molekulasidagi kimyoviy bog'lar. Peptid bog'i, peptid asosi – hamma oqsillarga xos bo'lgan struktura. Peptidlarning N va C uchi haqida tushuncha. Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi strukturasi. Oqsillarning klassifikatsiyasi. Tabiiy peptidlar.

Nuklein kislotalarning ochilish va o'rganilish tarixi. Nuklein kislotalarning tarkibiga kiruvchi purin va pirimidin azot asoslari, minor azot asoslari. Nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi uglevod komponentlari. D-riboza va 2-D-dezoksiriboza. Nukleozidlarning azot asoslari va uglevod komponentlarining glikozid bog'lar orqali birikishidan hosil bo'lishi. Nukleotidlarning tuzilishi.

Nukleotidlar tarkibidagi birikmalarning joylashish tartibi. Di va trifosfonukleotidlar haqida tushuncha. DNK va RNK tarkibidagi nukleotidlar. Nukleotidlar funksiyasi.

Nuklein kislotalar kimyoviy tuzilishiga ko'ra poliribonukleotidlar – RNK va polidezoksiribonukleotidlar – DNK dan iborat ekanligi haqida tushuncha. Nuklein kislotalar molekulasidagi nukleotidlarning bir-biri bilan fosfat kislota vositasida birikishi, DNKning hujayrada joylashishi va biologik funksiyasi. DNKning tuzilishi. DNKning molekulyar massasi. DNKning nukleotid tarkibi. Chargaff qoidasi. DNKning birlamchi strukturasi. RNKning tuzilishi, turlari va funksiyasi.

Uglevodlar o'simlik va hayvonlar organizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri. Uglevodlarning hayotiy jarayonlardagi ahamiyati. Uglevodlar tuzilishi va xususiyatlariga ko'ra ikkita guruhga: oddiy va murakkab uglevodlarga bo'linishi haqida tushuncha. Monosaxaridlar va polisaxaridlar. Monosaxaridlarning kimyoviy strukturasi ko'ra nomlanishi, fiz-kimyoviy xossalari. Polisaxaridlarning tuzilishi, vakillari va funksiyalari.

Lipidlarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va funksiyasi. Lipidlar klassifikatsiyasi. Triglitseridlar tuzilishi. Yog' kislotalari. Yog'larni xarakterlovchi sifat ko'rsatkichlari. Murakkab lipidlarning elementar tarkibi. Fosfolipidlarning tuzilishi va xossalari, ularning biologik ahamiyati. Glikolipidlar va sfingolipidlarning tuzilishi va vakillari.

Fermentlar – biologik katalizatorlar. Fermentlarni o'rganish tarixi. Hozirgi davrda fermentlar haqidagi ta'limot va bu borada erishilgan yutuqlar. Fermentlarning oqsil tabiatiga ega ekanligi haqida tushuncha. Fermentlarning kimyoviy tarkibiga ko'ra bir komponentli va ikki komponentli fermentlar gruppasiga bo'linishi va ularning tuzilishi. Fermentlarning faol markazlari.

Kofermentlarning tuzilishi va klassifikatsiyasi. Fermentlarning xossalari: spetsifikliги, termolabiligi, muhit pHning o'zgaruvchanligiga nisbatan sezuvchanligi, aktivatorlar va ingibitorlar ta'siriga moyilligi. Fermentlarning spetsifikliги: absolyut spetsifiklik, absolyut gruppaviy spetsifiklik, nisbiy gruppaviy spetsifiklik, steriokimyoviy spetsifiklik, yangi klassifikatsiyaga asosan fermentlar kataliz qiluvchi reaksiyalar turiga qarab sinflarga bo'linishi va nomeratsiya sistemasi haqida tushuncha.

Vitaminlarning ochilish tarixi. Ularning organizm hayotining normal kechishi uchun zarur moddalar ekanligi. Vitaminlar klassifikatsiyasi va ularning tuzilishi, funksiyasi. YOg'da va suvda eriydigan vitaminlar. Ularning ahamiyati va xarakteristikasi.

Gormonlar – biologik faol moddalar. Gormonlarning moddalar almashinuvidagi ahamiyati. Endokrin bez gormonlari. Gormonlar klassifikatsiyasi.

Moddalar almashinuvi haqida tushuncha. Anabolizm va katabolizm tushunchasi. Organizmda energiya almashinuvi yo'llari. Lipidlarning parchalanishi. Ularning beta va alfa – oksidlanishi. Lipidlarning hosil bo'lishi.

Uglevodlarning hazm bo'lishi. Uglevodlarning oshqozon-ichak yo'lida hazm bo'lishi va so'rilishi. Glikogenning biosintezi va uni sarf qilinishini boshqarilishi.

Glikoliz. Glikogenoloz. Uglevodlarning anaerob oksidlanishi, pentozofosfat sikli. Krebs sikli.

Oddiy oqsillar almashinuvi. Oqsillarning biologik ahamiyati haqida tushuncha. Oqsillarning hazm bo'lishi. Oqsillarning parchalanish mahulotlarining so'rilishi. Aminokislotalar almashinuvining umumiy yo'llari. Aminokislotalarning dezaminlanishi. Aminokislotalarning dekarboksillanishi. Ayrim aminokislotalarning almashinuv reaksiyalari. Oqsillar va aminokislotalar biosintezi haqida umumiy tushuncha.

**5110300-Kimyo o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi negizidagi
5A110301-Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo)
magistratura mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus
(ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini
o'tkazish tartibi va baholash mezon**

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ishi" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

"Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "Umumiy va anorganik kimyo", ikkinchi savoli "Organik kimyo", uchinchi savoli "Analitik kimyo", to'rtinchi savoli "Fizik-kolloid kimyo", beshinchi savoli esa "Biologik kimyo" fanidan bo'lib, har bir savol 20 balli tizim asosida baholanadi.

Yozma ishni o'tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **17–20 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **14– 16 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **11–13 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 10 ball** oralig'ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan kirish imtihoni bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a'lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

ESLATMA: Kirish imtihoni jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan abituriyentlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. Q.Axmerov, A.Jalilov, R.Sayfutdinov. Umumiy va noorganik kimyo. Toshkent: O'zbekiston. 2003.
2. Yoriyev O.M. va b. Umumiy va noorganik kimyodan masala va mashqlar to'plami. Toshkent: 2008.
3. Qodirov E., Muftaxov A., Norov SH. Noorganik kimyodan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent: O'zbekiston.2006.
4. Ahmedov K.N., Yo'ldoshev X.Y. Organik kimyo usullari / Toshkent. – Universitet. – 2003. – 252 bet.
5. Shoymardonov R.A. Organik kimyo. Savol, masala va mashqlar/Toshkent. - O'qituvshi. - 2008.
6. Ахмедов Қ.Н., Абдушукуров А.К., Тожимухамедов Х.С., Йўлдошев А.М. Органик кимё умумий курсидан маърузалар матни. Т.: «Университет». 2000й. 122 б.
7. Organic Chemistry 4th ed by Paula Bruice.2005y.1228p. Elektron ta'lim resurslari 20. Бочков А.Ф., Смит В.Н., Кейпл Р. «Органический синтез», «Наука и искусство» пер. с англ М.: «Мир», 2001. -573 с.
8. К.Р.Расулов. Аналитик кимё. Т.: Ф.Фулом нашриёти, 2004 й.
9. О.Файзуллаев. Аналитик кимyo Т.: Yangi asr avlodi. 2006 y.
10. Ю.А.Золотов. Основы аналитической химии. книга 1,2. М.: Высшая школа, 1999 й.
11. Yoriyev O.M. Fizikaviy kimyo. Toshkent. 2013.
12. Холдорова Т.Х. Физикавий ва коллоид кимёдан масала ва машқлар.Т.1993 й.
13. Olimov N.K. Fizikaviy va kolloid kimyo.Т. О'qituvchi. 2001y.
14. Yo.X.To'raqulov. Biokimyo. Toshkent. O'zbekiston, 1996. 167 b.
15. M.N.Valixanov, S.N.Dolimova, G.B.Umarova, P.Mirxamidova. Biologik kimyo va molekulyar biologiya (2-qism. Molekulyar biologiya). Toshkent, "Navroz", 2015.
16. P.Mirxamidova, D.B.Boboxonova. "Biologik kimyo va molekulyar biologiya" (1-qism). Toshkent, "Navroz", 2018. 345 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Шабаров Ю.С. Органическая химия. М.: «Химия». 2002. 848с.
2. Березин Б.Д, Березин Д.Б. Курс современной органической химии. М.: Высшая школа. 2003г. 768 с.
3. Травень В.Ф. Органическая химия в 2-х т. М.: ИКЦ «Академкнига» 2004 г. Т.1. 727 с., Т.2. 582 с.
4. Ахмедов Қ.Н., Йўлдошев Ҳ.Й. Органик кимё усуллари. Т.: «Университет». 1998, 2003 й 1 ва 2-қисм.
5. Рустамов Х.Р. Физик кимё. Тошкент. -2000.
6. Рахматullaev N.G'. Fizik kimyo ma'ruzalar matni. Nizomiy nomidagi TDPU 2001y.
7. Dr Wolfgang Sca'rtl. Basic Physical Chemistry. A Complete Introduction

on Bachelor of Science Level, 2014

8. Valixanov M.N. Biokimyo. Toshkent. "Universitet", 2008.

9. Zikiryayev A., Mirhamidova P. "Biokimyo" – T.: "Fan va texnologiya" 2009. O`quv qo`llanma.

10. Zikiryaev A., Mirhamidova P. Biokimyo -T.: "Tafakkur bo`stoni" 2013. (lotin alifbosida) darslik.

